

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.S.Shodiyeva	
Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini	424
M.G'.Ismoilov	
O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari.....	429
N.X.Raxmankulova	
O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati	433
M.Saminjonov	
Rasmiy-siyosiy qasamlar	439
A.A.Hakimov	
1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi	444
Sh.T.Abbosova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati	448
A.A.Parmonov	
Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'рни va ahamiyati.....	451
S.M.Abdullayev	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	456
S.M.Ro'zimurodov	
Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'рни.....	460
M.A.Мирзарахимов	
Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития.....	464
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili	467
J.Xamroqulov	
Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish.....	471
N.O.Yunusaliyeva	
O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ..	475
N.I.Suleymanova	
Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati	481
Y.V.Lutfullina	
Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahamiyati.....	486
J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob	
Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish	490
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida	497
S.A.Sharipova	
Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida.....	500
K.I.Марайимова	
Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей.....	506
B.B.Djalalov, K.P.Uzakov	
Ta'limning uzluksizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida.....	512
M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov	
Ayrim geteroatomli aldehydlarni $\text{InBr}_3/\text{Et}_3\text{N}/\text{Et}_2\text{O}$ katalitik sistemasida alkinillash jarayoni.....	519
A.Sh.Raximov	
Ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi.....	527

O'QUVCHILAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALARGA PEDAGOGIK BILIM BERISH TIZIMINING AHAMIYATI**ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ РОДИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБРАЗОВАНИЯ ОБУЧАЮЩИХСЯ****THE IMPORTANCE OF THE PEDAGOGICAL EDUCATION SYSTEM FOR PARENTS IN FORMING THE EDUCATION OF STUDENTS****Raxmankulova Nafisa Xasanovna¹**¹Qo'qon davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada oila a'zolari ro'zg'orning birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari, bolalarni tarbiyalash, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirish haqida fikrlar yuritilgan.

Аннотация

В статье члены семьи связаны друг с другом единством средств к существованию, взаимной поддержкой и моральной ответственностью. Обсуждались важнейшие социальные задачи семьи, воспитание детей, эффективная организация условий жизни и свободного времени членов семьи.

Abstract

In the article, family members are connected to each other by unity of livelihood, mutual support and moral responsibility. The most important social tasks of the family, raising children, and effectively organizing the living conditions and free time of family members were discussed.

Kalit so'zlar: oila, farzand, ijtimoiy muhit, psixologiya, yosh avlod, ilm, tarbiya, turmush, mehnat, qobiliyat, nikoh, urf-odatlar, o'qish faoliyati, ota-ona nazorati, oilaviy muhit.

Ключевые слова: семья, ребенок, социальная среда, психология, молодое поколение, наука, воспитание, быт, труд, способности, брак, традиции, учебная деятельность, родительский контроль, семейная среда.

Key words: family, child, social environment, psychology, young generation, science, upbringing, life, labor, ability, marriage, traditions, study activity, parental control, family environment.

KIRISH

Yosh avlod ijtimoiy turmushning barcha sohalari xususiyatlari bilan oila quchog'ida tanishadi. Oilaviy turmushda odamlarga, mehnatga, narsalarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarni ifoda etuvchi xususiyatlari asta-sekin tarkib topa boradi.

Shuning uchun ham oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini sifatida bolalarning axloqi, qobiliyati, aql-zakovati, xulqi, yurish-turishi, xatti-harakati, o'zaro muloqoti, e'tiqodi va dunyoqarashlariga yuqori darajada tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga egadir.

Inson haqida uning mehnati va turmushi, ma'naviy taraqqiyoti to'g'risida g'amxo'rlik qilish mustaqil O'zbekistonning oliy maqsadidir. Ma'lumki, kishi kamoloti, uning inson sifatida hayotga, ijtimoiy turmush va mehnatga, madaniy va ma'naviy boyliklarga bo'lgan munosabati asosan oilada shakllanadi.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

AMALIY NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Odatda oila degan tushuncha nimani anglatadi? Unga qanday tarif berish mumkin?

Oilani nikohga yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orning birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari-inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir[6, 321].

Aflotun oila haqida shunday fikr beradi: "...Urf-odatlar, ularning otalardan farzandlarga qanday o'tishi haqida ham ma'lumot beradi. Agar bu jarayon birlik-birdamlikni idrok etishiga olib keladigan bo'lsa, u

holda, turli hayot tarzidagi odamlarni, katta, obro'li oilalarning tabarruk yoshdagi otalar va farzandlarni farog'at keltiradigan birdamlikka birlashtiradigan qonunlar yaratishga majbur etadi[2, 72].”

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri uyushtirish-ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovidir. Bolaning oiladagi vaqtini o'yin, mehnat va o'qish faoliyatiga to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir[5, 257].

Chiqarilgan barcha qaror va ko'rsatmalarda xalqning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishini ta'minlovchi tavsiyalar berib borilmoqda.

Kelajagimiz bo'lmish yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. Avvalgi qabul qilingan qonun va qoidalardan farqli o'laroq, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonunida oila va oiladagi ta'limga asos soldi (16-modda). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ta'kidlanganidek: “Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi. Layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar”.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida zamon oilasining asosiy fuksiyalari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyariv (boshqaruv), feliotsilogik kabilar[4,47].

Oilaviy tarbiya deganda ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari asosida bola shaxsida ilmiy dunyoqarash asoslari, ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga aylanadi. Bunda ijtimoiy va ma'naviy hayot ta'sirida oilaning o'zi ham yangilanib borayotganini esdan chiqarmaslik lozim. Oilalar Respublikamiz shahar va qishloqlarining yagona ijtimoiy-iqtisodiy umumiyliigi asosida rivojlanmoqda. Ayni paytda oilaviy hayot va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham egadir. Bu esa o'z navbatida oilaviy tarbiya metodlari va mazmunining umumiy va xususiy tomonlari rivojida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Inson tabiiy xislatlarga ega — bular undagi xulq-atvor va xatti-harakatlarga sabab bo'ladilar, deb tushuntiradi. Sohibi qonun bu xislatlarni nazarda tutishi, ularni tuzatishi, shu xislatlarni tuzatuvchi qonunlar chiqarishi kerak, chunki bu bilan sohibi qonun fuqaroning xulq-atvorini ham tuzatadi...

Rohatlanish, dard chekish va qayg'urish asosiy tabiiy xislatlar hisoblanadi, ular tufayli fazilatlar va illatlar o'zlashtiriladi. Va nihoyat, balog'at va bilimlarga, ya'ni rivojlanishga tarbiya va mashq orqali erishiladi[2, 66].

Masalaning murakkabligi va qimmatli tomoni shundaki o'qituvchi-tarbiyachi, xalq ta'limi xodimlari, keng jamoatchilik oilaviy taraqqiyot, uning rivojlanish oqibatlarini oldindin bilish, ularni hisobga olgan holda oilaviy tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini pedagogik jihatdan to'g'ri izohlash va tegishli metodik tavsiyalhr berishlari lozim.

Respublikamiz o'zining demografik, etnik milliy, shart-sharoitlari jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu, ayniqsa, aholining zich joylashganligi va intensiv ko'payishidir.

Respublikamizning ma'naviy hayoti va uning o'ziga xos tomonlari muttasil rivojlanmoqda, ularning oilaviy tarbiyaga (ta'siri kuchaymoqda. Shaharlarning ko'payishi, o'sishi, yashash sharoitining yaxshilanishi, madaniy va moddiy tomondan yuksalishi oilalarning yuksalishigajva bolalarning har tomonlama yetuk kishilar bo'lib kamol topishlariga sabab bo'lmoqda, yordam bermoqda. Ko'p bolalilik oila nisbatan kamayib borayotganiga qaramay, hali ham bu ko'rsatkich o'z kuchini yo'qotgan emas. Pedagogik jihatdan olganda esa ko'p bolalilik oilalarda ota-onalar, bolalar uchun yaqqol namuna bo'lib xizmat qiladilar. Xalqimiz “Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor” deb bejiz aytishmagan. O'zbekistonda bir sutkada 1680 dan ortiq o'g'il va qizlarning tug'ilishi fikrimizning yaqqol dalilidir[3, 233].

Xalqimiz o'zidan keyin zurriyot qoldirmaslikni qattiq qoralaydi. Hatto «Erkak nomiga ega bo'lish uchun uch qoidani: Uylanish, farzandli bo'lish va uy qura olish lozim», deyilgan fikr hozir ham qimmatini yo'qotgan emas. Pedagogik jihatdan yakka bolalilik tarbiyani qiyinlashtiradi. Oilada tug'ilgan yakka farzand kattalarning jonli o'yinchoqlari, sevgi va g'ururlari, erkalari bo'lib voyaga yetadi. Buning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini tahlil qilib ko'raylik.

1. Ijtimoiy va ruhiy nuqtayi nazardan befarzandlik yoki kam bolalilik oila mustahkamligiga ta'sir etmaydi. Respublikamizdagi oilaviy majoralarning aksariyati bolasi yo'q yoki kam bolali oilalarga to'g'ri keladi.

2. Tibbiyot borasidagi tadqiqotlar va antropolog olimlarning ko'rsatishicha hayotimiz va

uning qiyinchiliklarim bartaraf eta oladigan bolalar deb oiladagi ikkinchi yoki uchinchi bola belgilangan. Yakka bola bilan chegaralanish kelajakda nuqsonli odamlarning ko'payishiga olib keladi. Demak pedagogik, ruhshunoslik va tibbiyot fanlari tavsiyasiga ko'ra, oilada 3-4 farzand bo'lishi ma'qul hisoblanadi.

A.S.Makarenko ta'kidlaganidek "qat'iy aytish mumkinki, yolg'iz o'g'il yoki qiz tarbiyalash bir nechta bolani tarbiyalashga qaraganda ancha qiyin ish. Xatto, agar moddiy jihatdan bir muncha qiynalgan taqdirda ham yolg'iz bola bilan kifoyalanib qolish yaramaydi"[3, 234].

Agar oilada hamkorlik, o'zaro yordam, bir-biriga ishonch holati mavjud ekan, bunday oilada rostgoy, samimiy, mehribon, o'rtoqlariga doimo yordam berishga tayyor bo'lgan inson kamol topadi.

Oilaviy turmush va oila a'zolarining o'zaro muammolarini tadqiq qilgan venger sotsiologi M.Komlosi [9, 108] 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oilaviy muhit (vaziyat, sharoit)ni uchta kategoriyaga ajratdi: ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy.

Rus psixologi V.I.Selivanov[9, 108] oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchli hamjahatlikning hamda ota-onalarning o'z bolalariga g'amxo'rdigining samarasidir, degan xulosaga keladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlarda kattalarning xatti-harakatlari, axloqiy fazilatlariga tanqidiy munosabatda bo'lish hissi kuchli bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda tinch-totuv yashaydiganlarning oilalaridagi bolalar ham shu oilada mavjud bo'lgan axloqiy hislatlar, xushmuomalalik, odoblilik, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik qilish, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, ayniqsa ayollarga nisbatan ko'rsatiladigan g'amxorlik kabi ijodiy fazilatlardan namuna olib, voyaga yetadilar.

Oila jamiyat hayotini olg'a suruvchi, uning yanada yuksak bosqichlarga ko'tarib, ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas'ul bo'lgan g'oyat muhim boshlang'ich guruhdir. Oila erkaklar va ayollarning to'la teng huquqligi, oila uchun bab-baravar javobgarligi asosida quriladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, oiladagi daromadlarning oshishi, bir tomondan ota-onalarning bilim saviyalari va madaniy hayotlarining yaxshilanishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, oila a'zolarining yuqori ma'naviy ehtiyojlarining ijobiy shakllanishiga, oilaviy munosabatlarning takomillashuviga, boyishiga kattalar va kichiklar orasidagi muloqot mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash davr talabiga aylanib bormoqda.

Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogik yutuqlari bilan tanishtirish, ularning mustahkamligini ta'minlash vositalaridan biridir. Ikkinchi tomondan esa, bu o'z navbatida, bolalarning tarbiyasida tegishli shakl va metodlarni takomillashtirish yo'llaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar, tarbiya metodlari bilan qurollantirish nihoyatda zarur. Jamiyatimizdagi har bir to'laqonli shaxs bolalarning tarbiyachisi bo'lishi, yangi insonni har tomonlama kamol toptiruvchi barcha holatlarda, shart-sharoitlarda ishtirok etishi lozim.

Pedagoglar tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil etish shart- sharoitlaridan biri ota-onalarning savodxonligida, deb hisoblagan edilar. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy yohud Guliston axloq» nomli asarida shunday deydi: «Tarbiyani kimlar qilur? Qayerda qilur?»[1, 4] degan savol keladur. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchidan maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, muddaris va hukumat vazifasidir deb javob bersak, bu kishi deyrurki "qaysi oilalarni aytursiz bilimsiz, boshi paxmoq, qoli to'qmoq onalarni? o'zlarida yo'q tarbiyani qanday olib berurlar", der. Otasiga nima dersiz, desak "qaysi ota? -To'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko'zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qitmak, tarbiya qilmoq lozimdir" [1, 4].

1899-yildayoq oilalar va ayollarni tarbiyachilik ishiga tayyorlash, ularni tarbiyaning mezonini va metodlari yuzasidan o'qitish zarurati ko'tarilgan edi [3, 236]. Hayotimizning ko'rsatishicha, tarbiyaga oid bilimlarni targ'ib qilish orqaligina oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya uyg'unligini ta'minlash mumkin. Bu ishlarni amalga oshirishda mahalliy shart-sharoit, materiallari va nihoyat, tarbiyaga oid gazeta va jurnallar va ularda bosilgan tarbiyaga oid mavzulardagi maqolalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Demak, oila hayotini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilish uchun o'qituvchilar, keng jamoatchilik pedagogika fani orqali aholiga yordam berish, ota-onalarga tarbiyaviy bilim berish tizimini ishlab chiqishlari lozim.

Pedagogik-olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, uning samaradorligi yanada oshadi.

1. Maktab o'zining barcha ta'sirlari majmuyini oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo'naltira olsa.
2. O'quvchilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorligi davrida o'zlarining yetik-pedagogik tarbiyaviy talablarini to'g'ri tashkil eta olsalar.

3. Xalq ta'limi bo'limi va muassasalar tashkilotchi ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga jalb eta olsalar.

4. O'quvchilar tomonidan oilaviy tarbiyaga rahbarlik bolalar maktabga kelmasdan oldin boshlansa va bu ish ularning barcha o'quv yillarida davom ettirilsa.

Hozirgi kunda Respublikamizning shahar va qishloqlarida tarbiyaga oid bilimlarni targ'ib qilishda quyidagi shakllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Aholi uchun ochilgan tarbiya madaniyatini targ'ib qiluvchi xalq universitetlaridan; xalq ta'limi tomonidan maktabgacha ta'lim, bog'cha va maktablarda bo'lgan ota-onalar universitetlaridan.

Jamoatchilik asosida ishlovchi oliy o'quv yurtlari qoshida ochilgan ota-onalar lektoriysi; seminarlar; kurslardan; tarbiyaviy huquqiy bilimlar maktablaridan; maktab yoshidagi bolalarni ota-onalari uchun tarbiyaviy va jiddiy maslahatnomalaridan; pedagogika va bolalar rivojlanishiga doir masalalarni o'rganuvchi to'garaklar va boshqalardan.

Bu va shunga o'xshash ilmiy-ta'limiy ishlarni, ruhshunoslar, pedagoglar jamiyatlari, maktab ota-onalar qo'mitasi, oilaga yordam beruvchi kengashlar, olib boradi.

Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi shaxsning mustahkam tavsif va qat'iy iroda egasi bo'lib voyaga yetishida mehnatning ahamiyati katta[5, 52].

Agar ota-onalarga umumiy ta'lim-tarbiya berishda olimlarning tavsiyalari, oilaviy tarbiyaga doir xalq pedagogikasi tajribalari, shahar, tuman, qishloq mehnat jamoalari, shuningdek, mehnat va urush faxriylarining maslahatlari, uchrashuvlaridagi tavsiyalariga tayanilsa, ishning samaradorligi yanada oshadi.

Tarbiyaviy madaniyatning samaradorligini oshirishda maktablarda o'tkaziladigan ota-onalar majlisi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab o'qituvchilari ota-onalar majlisiga puxta tayyorgarlik ko'rishlari lozim. Majlisdan oldin maktabni, sinflarni tartibga solish kerak. o'quvchilarning chorak, yarim yillik va hokazo ish natijalariga bag'ishlab ko'rgazma tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazmunli tashkil etilgan sinf majlislarida tarbiyaga oid munozaralar bo'ladi. Ota-onalar majlisiga ma'lum davrdagi ishlarni yakunlovchi va o'quv-tarbiya ishlariga doir umumiy masalalar kiritilishi lozim.

Ota-onalar majlisida ishtirokchilarni qiziqтира oladigan aniq va ravshan masalalar qo'yilishi g'oyat darajada muhimdir.

O'sib kelayotgan yosh avlodni axloqan pok, ma'naviy yetuk, mehnatsevar qilib tarbiyalash uchun barcha tadbirlardan unumli foydalanish lozim.

Ma'lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila bolaning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdagi eng birinchi vazifalari-bolalarning sog'ligini saqlashdir. Ayniqsa, ota-onalar o'zlarining mehnat faoliyatlari, xulq-atvorlari orqali namuna bo'lishlari lozim. o'zaro oilaviy jamoada yaxshi iborali so'zlashuvni tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir.

Bolalik va o'smirlilik davridagi shaxs psixik rivojlanishdagi disgarmoniyaning ko'pchiligi asosida oilaviy ichki o'zaro munosabatlardagi "og'ish" yotadi[7, 52].

Odatda, ota-onalar maktab o'quv vazifalarini yaxshi bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilarga rioya qilish tavsiya etiladi:

- o'quvchilarning mashg'ulotlardan kechikishlariga va darsga kech qolishlariga yo'l qo'ymaslik;

- o'quvchining uyda dars tayyorlashi uchun sharoit yaratish, vazifalarni belgilangan vaqtda bajarish ko'nikmasini shakllantirish;

- o'quvchilarni vijdonli va rostgo'y bo'lishiga, vazifalarni mustaqil ishlashdan bo'yin tovlamaslikka o'rgatish lozim va hokazo.

Oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Chunki, bola tarbiyasida oila, maktab va

jamoatchilik hamkorligining o'zi murakkab jarayon bo'lib, bunda muallimlardan tashqari ishlab chiqarish jamoalari vakillari, yoshlar, kasaba uyushmalari ishtirok etadilar.

Ota-onalar tomonidan o'z farzandi shaxsining noto'g'ri baholanishi va noto'g'ri idrok etilishi, unga nisbatan o'ylamasdan harakat qilish, shuningdek, ota-onaning xulq-atvori bolalardagi ko'pchilik og'ishlarning sababi hisoblanadi[7,52].

Ota-onalar va qarindosh-urug'lar turli mehnat jamoalarining vakillari bo'lib, ishlab chiqarish va yoru-do'stlarining ma'naviy hayotlarida muammolarni muhokama qiladilar, ularning hayotga, san'atga, oilaviy majburiyatlarga bo'lgan munosabatlari haqida gapiradilar. Shu sababli ham mana shunday oilalarida tarbiya topayotgan bolalar boshqa ota-onalarning ko'chada, jamoat joylaridagi hayot faoliyatlariga qarab o'z ota-onalariga baho beradilar.

O'zbek oilalarida, ularning hayot tarzida ijtimoiy voqealar natijasida ijobiy o'zgarishlar qilish uchun yangi samarali yo'l va metodlar qidirilmoqda.

Har bir ota-ona farzandi ta'lim olayotgan maktab jamoasining a'zosi hisoblanadi. Ota-onalar orasida turli kasb egalari va jamoatchi faol insonlar bor. Ular umumiy majburiy ta'limni amalga oshirishda maktabning iqtisodiy bazasini mustahkamlashda yordam beradilar.

Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligini yo'lga qo'yishda sinf rahbarlarining tarbiyaviy faoliyatlari nihoyatda muhimligi sir emas. Masalan, sinf rahbarlarining har bir oilaga kirib borishi, shu oilaga hamda ota-onalarga hurmat sifatida baholanadi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy masalalarni belgilashlari, sinf rahbarining o'quvchilar ko'z oldida ota-onalari bilan suhbatlashishlari ularning tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Faqat sinf rahbarlari emas, balki fan o'qituvchilarining ham ota-onalar bilan qilayotgan hamkorliklari o'quvchilar hayotida sezilarli iz qoldiradi. Bola tarbiyasida jamoatchilikning ta'siri benihoya katta ekanligini hayotiy jarayonda yaqqol ko'rinib turibdi. Azaldan odamiylikka, insoniylikka da'vat etuvchi jamiyat tarbiyasi mavjud bo'lgan. Ularning aksariyati hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Masalan, biz xalqimizda ko'pchilik ishtiroki bilan o'tadigan to'ylar, xalq o'yinlari, sayllar, mavsumiy bayramlar, qizlar majlisi, kelinlami qaynona va qaynota oldidagi "yuz ochdilari", "kelin salomlari" va boshqa shu kabi marosimlari xalq pedagogikasining durdonalari sifatida avlodlarni o'zbek xalqiga xos bo'lgan "o'zbekona", "sharqona" tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz o'zining an'anaviy tarbiya metodlarida kattalarga birinchi bo'lib salom berish, kattalar suhbatiga aralashmaslik, uyga mehmonlardan so'ng kirish, lekin eshikni birinchi bo'lib ochib, ushlab turish, ularga yordam berish kabi odob qoidalarga rioya etishi har doim talab qilingan va hozir ham ular tarbiya manbayi sifatidagi o'z qadrini yo'qotmagan. Hozirgi kunimizga kelib jamoatchilikning tarbiya borasidagi metodlari, shakllari mazmunan boyib bormoqda, jumladan, maktab o'quvchilarini rag'batlantirish maqsadida stipendiya berish yoki turmush tarbiyasi og'ir bo'lgan oilalarga moddiy va ma'naviy yordam beruvchi tadbirkor tashkilotlarning yordami kuchaymoqda. Bu borada "Bolalar jamg'armasi", "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasining faoliyati maqtovga sazovordir.

XULOSA

Demak, maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi. Bolalar tarbiyasida asosiy hal qiluvchi bo'g'in bo'lib, bunda o'qituvchi- tarbiyachilarning tashkilotchiliklari muammoni ijobiy hal etuvchi omil hisoblanadi.

Oila a'zolari orasidagi munosabat bugungi kunning tez sur'atda yechimini topishi zarur bo'lgan masala hisoblanadi. Bu qanday omillarda ko'rinadi:

- farzand tarbiyasi ko'proq ota-ona ta'sirida emas, aksincha, ijtimoiy tarmoq, "zamonaviy do'stlar", uyali aloqa vositalari (qo'l telefoni) bo'layotganida;
- ayrim ota-onalar orasida yangicha yondashuvga hali to'liq moslashmaganida;
- bolalarga erta mehnat qilish yoki ilm olish malakasini shakllantira olmaganida;
- sifat axloqiy me'yorlarga mos bo'lmagan multfilm yoki kinofilmlarga tomoshabinlik qiluvchilar orasida nazoratga olinmagan bolalarning ko'pligida;
- yoshlar tafakkuri va dunyoqarashi rivojlanishida kitobxon madaniyatini to'laqonli o'rin egallay olmaganida va boshqalar.

Millat tanlamas, har qanday hudud bo'lishidan qat'iy nazar insoniyat borki, oila bilan istiqomad qiladi. Uni havosidan nafas oladi. Shu kichik Vatanda kamolga yetadigan farzandning

axloq-odobi, tarbiyasi, ilm-u hunarli bo'lishi ota-onaga, oila a'zolariga bog'liqligini barchamiz bilamiz, sezamiz. Ammo odatda unga e'tioborsizlik bilan qaraymiz. Bu esa yer kurrasining go'zalligi, uning rivojlanishi hamda bashariyat madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadigan ezgulikning poydevori bo'lgan tarbiyaning susayishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zero, "Ezgulik-hech qachon eskirmaydigan birdan-bir libosdir[10, 119]." buni hech birimiz unutmasligimiz zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. "Cho'lpon" T., 1994.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
3. Asqarova. O'.M., Xayitboyev M., Nishonov M.S. Pedagogika. "Talqin", T., 2008.
4. D.Abdullayeva, R.Yorqulov, N.Atabayeva. Oila psixologiyasi. T., "Tafakkur Bo'stoni", T., 2015.
5. J.Hasanov, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmonov. Pedagogika. "Noshir", T., 2011 257-bet.
6. Tarbiya. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Davlat ilmiy nashriyoti, T., 2010.
- 7.To'laganova G.Q., Deviant xulqning psixologik korreksiyasi "Universitet" T., 2014.
- 8.To'rayeva O., Turotova M., "Odobnoma", "O'qituvchi", T., 1999.
9. G'oziyev E.F., Meliboyeva R.N. Ijtimoiy psixologiya. "Faxrizoda", T., 2009.
10. O.To'rayeva, M.Turotova."Odobnoma", "O'qituvchi", T., 1999, 119-bet